

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIVY TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHIKENT ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

O'QUV ISHLARI DEKANATI  
TOMONIDAN RO'YXATGA OLINDI  
TR: 4816  
"30" 08 2024 y.



"MASMUMOTAYMAN"  
B.A. Tulaganov  
(Oliy rektor)

Ro'yxatga olindi: \_\_\_\_\_  
2024-yil « 30 » 08

IQTISODIYOT NAZARIYASI  
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	700 000	-	Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	730 000	-	Arxitektura va qurilish
Ta'lim yo'nalishi:	60730700	-	O'yinat injining va ko'chmas mulkni boshqarish

Toshkent-2024



Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
IN1106	2024-2025	1	6	
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari		
Majburiy	O'zbek/rus	4		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Iqtisodiyot nazariyasi	60	120	180

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarni o'rganish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifalari – talabalarda iqtisodiy hodisa va jarayonlar mazmunini ma'niqiy mushohada qilish uchun zarur bo'lgan uslubiy yondashuvlarni egallashiga ko'maklashish; ular ongiga milliy istiqbol g'oyasini va milliy makrurning asosiy qoidalarini singdirish; iqtisodiyotni modernizatsiyalash, erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish asosida hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirishning dolzarb muammolarini ochib berish; iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlarni to'g'risida amaliy ko'nikmalarni hosil qilish.

2.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**I-mavzu. Iqtisodiyot nazariyasi fanning predmeti va ushlabi**

Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasi. Ihtiyotlarning mazmuni, turlari va cheksizligi. Iqtisodiy resurslarning mazmuni, turlari va cheklanganligi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fanning predmeti. Iqtisodiy hodisa va jarayonlar. Moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayiribsovlash va iste'mol qilish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni.

Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar). Iqtisodiy qonunlar tizimi.

Iqtisodiy qonunlar va jarayonlarni ilmiy bilishning dialektik qoidalari. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganish usullari: ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, empirik usul va farazlardan foydalanish. Mikro va makroiqtisodiy tahlil. Iqtisodiy tahlilda matematik, statistik va grafik usullardan foydalanish. Pozitiv va normativ usullar.

**2-mavzu. Iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish**

Iqtisodiy faoliyat va uning turlari. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va uning iqtisodiy asoslari. Ishlab chiqarishning jamiyat hayotidagi ahamiyati. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning o'zaro bog'liqligi. Ishlab chiqarish omillari va ularning turkumlanishiga turlicha yondashuv. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro bog'liqligi va bir-birining o'zini bosishi. Ishlab chiqarish omillaridan tejankorlik bilan foydalanish. Vaqtni tejash qonuni. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir qiluvchi omillar.

**3-mavzu. Tovar ishlab chiqarish va pul**

Ijtimoiy xo'jalik shakllari. Natural va tovar ishlab chiqarish hamda ularning belgilari. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi sabablari. «Mahsulot», «tovar», «xizmat» tushunchalari.

Tovar va uning xususiyatlari. Tovarning natifligi va ayiribsovlanish qobiliyati (qiymati).

Pulning kelib chiqishi va mazmuni. Pulning asosiy vazifalari: qiyamat o'lovchi, muomala vositasi, jang'arish vositasi.

Hozirgi zamon pulining tabiati va mazmuni.

O'zbekistonda milliy pul-so'mning muomalaga kiritilishi va uning ahamiyati. Bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlari rivojining mahsuli ekanligi.

**4-mavzu. Mulk va mulkchilik munosabatlari**

Iqtisodiy tizim tushunchasi. Mulkiylik munosabatlari va iqtisodiy tizimlarning ichki o'zaro bog'liqligi. Iqtisodiy tizim modelлари: sof kapitalizm, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, aralash iqtisodiyoti, an'anaviy iqtisodiyot.

Mulkiylik munosabatlarning iqtisodiy mazmuni: o'zlashtirish, egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish tushunchalarining mazmuni. Mulkiylikning iqtisodiy va xuquqiy jihatlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkiylikning turli-tuman shakllari. Davlat mulki, xususiy mulk, jamoa mulki va aralash mulk.

Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkiylikning o'zini.

O'zbekiston Respublikasida mulkiylikni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishning shakllari, yo'llari va usullari.

**5-mavzu. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va uning O'zbekistondagi xususiyatlari**

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor tizimining o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizmi. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo'llari. Bozor iqtisodiyotining afzaliliklari va ziddiyatlari. Bozorning mazmuni va uning tuzilishi. Bozorning



turlari. Bozorning ob'ektlari va sub'ektlari. Bozor infratuzilmasi va uning tarkibi. O'tish davri nazariyasi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish - hamma mamlakatlarga xos umumiy jarayon. Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning xususiyatlari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeli, uning tamoyillari va xususiyatlari. O'zbek modelida hozirgi davrdagi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining sababiy ta'sirlaridan himoya vositasining mujassamlashtirilishi.

Iqtisodiy islohotlarning bosqichlari va ularning vazifalari. O'zbekistonda islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti infratuzilmalari-ning yaratilishi. Aholi tabaqalanishining oldini olish va ijtimoiy siyosat.

#### **6-mavzu. Talab va taklif. Bozor muvozanati**

Talab tushunchasi. Talab egri chizig'i. Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: bozor narxlari, iste'molchi didi, iste'molchi pul daromadi, narxlar va iste'molchi pul daromadlari o'zgarishining kutilishi, o'rinni bosuvchi tovarlar narxi. Xaridorlar sonining talab hajmiga ta'siri. Talab qonuni.

Taklif tushunchasi. Taklifning o'zgaruvchanligi. Taklif egri chizig'i. Taklif miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: bozor narxlari, ishlab chiqarish hajmi, resurslar narxi, soliqlar darajasi, ishlab chiqaruvchilar soni, resurslar unumdorligi, boshqa tovarlar narxi, inflyatsiyaning kutilishi. Taklif qonuni.

Talab va taklif miqdorlarining mos kelishi. Bozor muvozanati. Xususiy va umumiy muvozanatlik. O'zbekistonda bozor muvozanatining ta'minlanishi.

#### **7-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning xarakati**

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va asosiy belgilari. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari: shaxsiy, sherikchilik asosida, jamoa va davlat tadbirkorligi.

Korxonalar tadbirkorlik faoliyatining asosiy va boshlang'ich bo'g'ini. Aksionerlik jamiyati va aksionerlik kapitali. Aksiya va uning turlari. Dividend va ta'sischi foydasi. Obligatsiyalar.

Tadbirkorlik kapitalining mohiyati va doriviy aylanishining bosqichlari. Asosiy va aylamma kapital. Kapitalning aylanish tezligi. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish: jismoniy, ma'naviy va iqtisodiy eskirishi va g'ayta tiklanishi. Amortizatsiya va uning normasi. Jadallashgan amortizatsiya. Asosiy va aylamma kapitaldan foydalanish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

#### **8-mavzu. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati**

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi. Jamiyat a'zolarining daromadlari, mol-mulka egaligi va ijtimoiy ahvoli bo'yicha farqlari. Lorenns egri chizig'i.

4

Aholi daromadlari, uning turlari va shakllanish manbalari. Nominal va real daromad. Daromadlarning tabaqalanish sabablari va omillari. Turmush darajasi va sifati. Turmush darajasi va qashshoqlikning ko'rsatkichlari. Oila budjeti: daromadlar va xarajalar tarkibi.

Ijtimoiy fondlar, ularning o'rni, manbalari va tuzilishi. Ijtimoiy tenglik.

Uy-joy-kommunal xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish-mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida.

#### **9-mavzu. Ish haqi va mehnat munosabatlari**

Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Nominal va real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Ish haqining tabaqalanishi. Ish haqini tashkil qilish shakllari va tizimlari.

Mehnat munosabatlari. Mehnat shartnomalari. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro munosabatlari.

O'zbekistonda mehnat munosabatlari takomillash-tirishning ustuvor yo'nalishlari.

Respublikada mehnatni rag'batlantirish, ish haqini ko'paytirish va aholi daromadlari o'sishini ta'minlashga qaratilgan siyosatni amalga oshirishda qo'lga kiritilgan natijalar.

#### **10-mavzu. O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari**

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi: zaruriyati, maqsadi, tamoyillari va vazifalari. "Mamlakat iqtisodiyotining energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlari. Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish istiqbollari. Iqlim o'zgarishlari oqibatiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo'llari. "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

#### **11-mavzu. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari**

Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari. Yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot. Sof milliy mahsulot, milliy daromad va shaxsiy daromad.

Yalpi ichki mahsulotni taqsimlash muammolari. Yalpi ichki mahsulotni ko'paytirish omillari. Yalpi va atrof-muhit. Xudiyona iqtisodiyot, uning o'lchamlari va namoyon bo'lish shakllari.

O'zbekistonda o'tgan yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori o'tish sur'atlarining ta'minlanishi.

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari. Iqtisodiy o'sishning maqsadi, samaradorligi va yo'nalishlari. Iqtisodiy o'sishning omillari. Milliy boylik

5



tushunchasi va uning tuzilishi. Moddiy-buyumlashtgan, tabiiy va intellektual boylik.

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishi va iqtisodiy o'sish muammolari.

### 12-mavzu. Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik

Yalpi ishchi kuchining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Ishchi kuchini takror hosil qilish.

Yalpi ishchi kuchining miqdor va sifat jihatdan aniqlanishi. Ishchi kuchi bandligi va uning darajasi.

O'zbekistonda ishchi kuchi bozorini shakllantirish va tartibga solish. Ishsizlarni ijtimoiy himoyalash.

Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish.

### 13-mavzu. Moliya tizimi. Kredit va bank tizimi

Moliyaning mohiyati, o'rni va vazifalari. Moliyaviy munosabatlarning ob'ektlari va sub'ektlari.

Davlat budgeti va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat budgetining tuzilishi. Davlat budgetining daromadlari va xarajatlari hamda uning tarkibi. Budget taqchilligi va davlat qarzlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari. Soliq solish tamoyillari va soliq turlari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq va budget tizimini isloh qilish yo'llari.

Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari. Kredit mexanizmi, kredit resurslari bozori. Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish. O'zbekistonda pul-kredit islohotlari.

Banklar va O'zbekiston Respublikasining bank tizimi. Bozor iqtisodiyotida banklarning o'rni. Markaziy bank va uning vazifalari. Tijorat banklar va ularning vazifalari.

### 14-mavzu. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning iqtisodiy roli

Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi. Davlatning iqtisodiy o'rni va vazifalari: bozor munosabatlari qanashchilarini huquqiy himoyalash, raqobatchilik muhitini vujudga keltirish; resurslar, mahsulotlar va daromadlarni qayta taqsimlash; iqtisodiyotning va pul muomalasining barqarorligini ta'minlash; tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish. Fan-texnika taraqqiyoti, tarkibiy, ijtimoiy va regional siyosatni amalga oshirishda davlatning o'rni. Iqtisodiyotning davlat sektori va uning chegaralari.

Davlat tomonidan moliyalashtirish, subsidiyalash, dotatsiyalash va transfert to'lovlarini amalga oshirish mexanizmi. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining chegaralari.

### 15-mavzu. Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari

Jahon bozori va xalqaro savdo. Jahon bozori narxлари. Milliy va xalqaro bozorlarining o'zaro bog'liqligi. Bojxona siyosati. Jahon bozorini xalqaro tartibga solish. O'zbekistonning jahon bozoriga faol kirib borish muammolari. Xalqaro vapyuta tizimi: oltin standart, oltin-valyuta va suzib yuruvchi valyuta tizimi. Xalqaro valyuta fondlari: Yevropa valyuta ittifoqi, «Katta sakkizlik» kelishuvi. Mintaqa valyuta fondlari. Valyuta bozori va valyuta kurslari. Valyutalarni konvertatsiya qilish. Tashqi qarz muammolari. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida O'zbekistonning valyuta muammolari. Xalqaro kredit. Transmilliy banklarning o'rni. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki.

### III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanining predmeti va bilish usullari.
2. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari.
4. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosidir.
5. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi.
6. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari.
7. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati.
8. Raqobat va monopoliya.
9. Narxning mohiyati va shakllanish xususiyati.
10. Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi.
11. O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari.
12. Ish haqi va mehnat munosabatlari.
13. Agrar munosabatlari va agrobiznes.
14. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari. yalpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari.
15. Yalpi talab va yalpi taklif.
16. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik.
17. Milliy iqtisodiyotning nisbatlari va muvozanati.
18. Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik.
19. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat.
20. Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli.
21. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli.
22. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati.
23. Jahon xo'jaligi va uning evolyusiyasi.



<p>24. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi.</p> <p>25. Jahon bozori. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari.</p>	<p><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b></p> <p><i>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Iqtisodiyot nazariyasi fani vujudga kelishining asosiy bosqichlari.</li> <li>2. Iqtisodiyot nazariyasining predmeti va uslubli.</li> <li>3. Ehtiyojlar va ishlab chiqarish jarayoni.</li> <li>4. Jitimoiy- iqtisodiy ehtiyojlar va iqtisodiy resurslar.</li> <li>5. Tovar ishlab chiqarish.</li> <li>6. Pulning vujudga kelishi, mohiyati va vazifalari.</li> <li>7. Mulk va mulk munosabatlari.</li> <li>8. Iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish.</li> <li>9. Bozor iqtisodiyotining mohiyati.</li> <li>10. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish xususiyatlari.</li> <li>11. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi: mazmuni va mohiyati</li> <li>12. Bozor va uning tuzilishi.</li> <li>13. Talab va taklif qonuni.</li> <li>14. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va asosiy belgilari.</li> <li>15. Ish haqi va mehnat nazariyalari.</li> <li>16. Agrar munosabatlari va agrobiznes.</li> <li>17. Milliy iqtisodiyot, uning makroiqtisodiy o'lchamlari.</li> <li>18. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik</li> <li>19. Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik.</li> <li>20. Moliya tizimi va moliyaviy munosabatlari.</li> <li>21. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati.</li> <li>22. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning iqtisodiy roli.</li> <li>23. Rivojlanayotgan mamlakatlarda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish tajribasi.</li> </ol>
<p><b>3. bo'lishi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• iqtisodiyot nazariyasi asoslarini; milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini; iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlarini; iqtisodiy muammolarini hal etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar to'plashni bilishi va ulardan foydalana olishi;</li> </ul>	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• iqtisodiy kategoriyalar va iqtisodiyot to'g'risida tasavvurga ega</li> </ul>

<ul style="list-style-type: none"> <li>• iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash; iqtisodiy qonunlar, ilmiy tushunchalar (kategoriyalar), iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish; iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</li> </ul>	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalari;</li> <li>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;</li> <li>• interfaol keys-stadtlar;</li> <li>• blits so'rov;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalari.</li> </ul>
<p><b>5.</b></p> <p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oralig nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p>	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. H.Mamedov, N.Muminov, A.Umarov, A.Ismailov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. "Bookmany print" nashriyoti. T.: 2022-yil.</li> <li>2. Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. TDIU, 2020. – 788 b.</li> <li>3. Z.T. Gairnazarova, Sh.A. Isanmukametov, Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uy"i", 2020-yil. – 526 b.</li> <li>4. A.O'Imasov, A.V. Vahobov, Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Iqtisodiyot -Moliya», 2014. – 424 b.</li> <li>5. O'Imasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Iqtisodiyot -Moliya» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2014. – 456 b.</li> </ol>
<p><b>6.</b></p> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Campbell McConnell, Stanley Brue and Sean Flynn. Economics. 22nd Edition. ISBN10: 1260226778   ISBN13: 9781260226775</li> <li>2. С.С.Носова. Экономическая теория. Учебник. КНОРУС. 2017 г.</li> <li>3. В.У.Ходиев, Ш.Ш. Шодмоннов. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Barkamol fayz media», 2017. – 784 b.</li> <li>4. A.O'Imasov, A.V. Vahobov, Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Iqtisodiyot -Moliya», 2014. – 424 b.</li> </ol>	



	<p>5. N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2014.</p> <p><b>Axborot manbaalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a></li> <li>2. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a>.</li> <li>3. <a href="http://www.economics.com">www.economics.com</a></li> <li>4. <a href="http://www.wordeconomics.com">www.wordeconomics.com</a></li> </ol>
7.	<p>Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 20<del>14</del><sup>20</sup> yil <del>30</del><sup>08</sup> dagi <del>1</del><sup>1</sup>-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b></p> <p>D.Sh.Mirjalilova – TAQU “Iqtisodiyot va ko'chmas mulk” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>I.X.Davletov – TAQU “Management” kafedrasi professori, i.f.d.  Sh.Z.Muxitdinov – Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.d.</p>